

UO‘K (UDC, УДК): 821.11

TARJIMADA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SO‘Z MUQOBILLARINI LEKSIK MUVOFIQLASHTIRISH²²

Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi

Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar

Qo‘qon universiteti, o‘qituvchi

nodirabegimsobirova600@gmail.com

[Orcid ID 0009-0007-6733-9067](https://orcid.org/0009-0007-6733-9067)

+998903650924

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida so‘z muqobillarining leksik muvofiqlashtirishini tadqiq etish asosiy maqsaddir. Tilda leksik muvofiqlashtirish – bu bir tilning leksik birliklarini boshqa tilning tegishli birliklariga to‘g‘ri va aniq tarjima qilish jarayonidir. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik birliklarning o‘zaro tengligi, ularning semantik va grammatik jihatlaridan farqlari, shuningdek, so‘z muqobillarining o‘zgarma kontekstual va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, so‘zlarning sinonim va antonim munosabatlari, leksik xatolar va ularning oldini olish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z muqobillarini aniqlash va tahlil qilish orqali tarjima va til o‘rganish jarayonlarini takomillashtirish uchun ilmiy asoslar yaratiladi. Tadqiqot natijalari ikki til o‘rtasidagi leksik farqlarni yaxshiroq tushunishga, tarjima faoliyatida samarali metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi so‘z muqobillari muvofiqlashtirish qiziqarli va murakkab mavzu bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi leksik muvofiqlashtirish qator qiyinchilik va imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu ikki til turli tillar oilalariga mansub bo‘lib, grammatik va leksik jihatlari ham ancha farq qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Professional tarjima, kontekstual, modal fe‘llar, zamonaviy tendensiyalarini, infinitive, leksik muvofiqlashtirish, so‘z muqobillari, tarjima, ingliz tili, o‘zbek tili, sinonimlar, antonimlar, semantika, grammatika.

Received: December 2, 2025

Accepted: January 3, 2024

Available online: March 1, 2025

²² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sobirova N. Tarjimada ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z muqobillarini leksik muvofiqlashtirish. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 214-229

ЛЕКСИЧЕСКОЕ СОГЛАСОВАНИЕ ЭКВИВАЛЕНТОВ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Собирова Нодирабегим Муроджон кизи

преподаватель

Кокандский университет,

Ферганская область, город Коканд

nodirabegimsobirova600@gmail.com

[Orcid ID 0009-0007-6733-9067](https://orcid.org/0009-0007-6733-9067)

+998903650924

АННОТАЦИЯ

Основной целью данного исследования является изучение лексического соответствия словесных эквивалентов в английском и узбекском языках. Лексическое соответствие в переводе означает процесс точного и корректного замещения лексических единиц одного языка на соответствующие единицы другого языка. В исследовании анализируются семантические и грамматические различия лексических единиц в английском и узбекском языках, а также контекстуальные и прагматические особенности, влияющие на замену слов. В частности, рассматриваются синонимические и антонимические отношения, лексические ошибки и способы их предотвращения. Определяя и анализируя лексические эквиваленты в обоих языках, исследование способствует созданию научной базы для совершенствования перевода и процессов обучения языку.

КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

Профессиональный перевод, контекстные, модальные глаголы, современные тенденции, инфинитив, лексическое соответствие, словесные эквиваленты, перевод, английский язык, узбекский язык, синонимы, антонимы, семантика, грамматика.

.
. .

LEXICAL ALIGNMENT OF WORD EQUIVALENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN TRANSLATION

Sobirova Nodirabegim Murodjon kizi

Fergana region, city of Kokand

Kokand University, teacher

[*nodirabegimsobirova600@gmail.com*](mailto:nodirabegimsobirova600@gmail.com)

[*Orcid ID 0009-0007-6733-9067*](https://orcid.org/0009-0007-6733-9067)

+998903650924

ABSTRACT

The main objective of this research article is to thoroughly examine and analyze the lexical equivalence of word substitutes in both the English and Uzbek languages, with the ultimate goal of determining their similarities and differences. The concept of lexical equivalence in translation entails the precise and suitable substitution of lexical units from one language with their equivalents in another language. This study analyzes the semantic and grammatical differences between lexical units in English and Uzbek, as well as the contextual and pragmatic features that affect word substitution. Specifically, the research explores synonym and antonym relationships, lexical errors, and ways to prevent them. By identifying and analyzing word equivalents in both languages, the study aims to provide a scientific basis for improving translation practices and language learning processes. The findings of this study will aid in gaining a deeper understanding of lexical distinctions between the two languages and in devising efficient approaches for translation.

KEY WORDS

Professional translation, contextual, Modal verbs, modern tendencies, infinitive, lexical equivalence, word substitutes, translation, English, Uzbek, synonyms, antonyms, semantics, grammar.

KIRISH

Ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotlarga oid to'plangan materiallar tahlil qilinganida, ta'limga oid leksik qatlam barcha so'zlarni o'zlashtira olmasligi ma'lum bo'ldi. Ularning ichida mustahkam o'rin olib, aynan ta'lim doirasida faol qo'llanadiganlariga e'tibor qaratishimiz o'rinlidir. Masalan: matematika faniga oid (logarifm, kosinus, sinus, gipotenuza), chizmachilikka oid (proektsiya, oktogonal burchak), geografiyaga oid (azimut burchagi, ekvator) va boshqa mavzuiy guruhida qo'llaniladigan leksik birliklarda ham o'ziga xos faollik chastota xususiyati mavjud. (Usmonov O'.U, 2007,98.) Masalan:

1) ta'lim turlari va yo'nalishlari: preschool education - maktabgachata'lim, secondary education - o'rta ta'lim, primary education - boshlang'ich ta'lim, bachelor degree - bakalavriat darajasi, master's degree - magistrlik darajasi;

2) ta'limda faoliyat olib boruvchi shaxslar: teacher -o'qituvchi, pupil - o'quvchi, student - talaba, falsafa fanlari doktori - doctor of philosophy, stajyor-tadqiqotchi - student researcher, professor - professor, dotsent - assosiated professor;

3) ta'lim muassasalari turlari: lyceum - litsey, school - maktab, institute - institut, university - universitet, ilmiy tekshirish instituti - scientific research institution, college - kollej;

4) dars turlari: lecture -ma'ruza, practical lesson–amaliyot darsi, laboratory work – laboratoriya ishi;

5) ta'limda tekshirish jarayoni: presentation - taqdimot, graduation projectwork - bitiruv loyiha ishi, scientific thesis - diplom ishi, dissertation - dissertatsiya, course work - kurs ishi;

6) ta'limga oid hujjatlar: ishchi dastur, namunaviy dastur, yuklama, shaxsiy ish reja, sillabus activity plan - mashg'ulot rejasi, murabbiyning mashg'ulot daftari -kindergarten teacher's notebook, children list - bolalar ro'yxati, lesson plan - dars rejasi va boshqalar.

Soha leksik birliklarini muayyan tilda to'g'ri ifoda etib, ularning to'g'ri va optimal variantini tanlash masalasida ayni bir leksik birlikni birdan ortiq tushuncha

uchun qo‘llash yoxud bir tushunchani turli so‘zlar bilan atash inkor qilinadi. Mazkur maydonda variantlilik, (dubletlik-sinonimlik), omonimlik va ayrim terminlardagi bo‘yoqdorlik, ko‘chma ma’nolik va iboralarga xos xususiyatlar mavjud. (Catford, J. C., 1965, 29.) Rus tili va shu orqali o‘zbek tiliga g‘arbiy Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyatini to‘g‘ri aks ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi leksik birliklarning noqulayligiga sabab bo‘luvchi ko‘p komponentlilik holatining mavjudligi o‘zbek tilida chet til terminlarining keragidan ortiq darajada o‘zlashishi, ayrim leksik birliklarning yozilishi va talaffuzidagi har xillikning yuzaga kelishi kabi tilshunoslikning asosiy mezonlariga zid keluvchi holatlar ham uchrab turadi.

So‘z muqobillari tushunchasi. Bir tilning so‘zlari boshqa bir tildagi ma’no jihatidan mos keladigan so‘zlardir. Ular til va madaniyatning o‘ziga xosligini aks ettiradi. Korpus lingvistika — katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish usuli. Bu usul orqali:

Muqobillarni aniqlash: Katta hajmdagi matnlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘z muqobillari aniqlanadi.

Statistik tahlil: Qanday so‘zlar birgalikda ishlatilishini va ularning ta’sirini o‘rganish mumkin. Bu tilning zamonaviy tendensiyalarini tushunishga yordam beradi. Tilshunoslik juda keng ko‘lamdagi yo‘nalish bo‘lganligi uchun hozirgi kunga qadar ham sohada to‘kis tugal o‘rganilmagan mavzular juda ko‘p. Bunga misol sifatida modallikni ifodalash masalalarini olishimiz mumkin bo‘ladi. Chunki modallikni o‘rganishdagi, ayniqsa uni qiyosiy tahlil qilishdagi muammolar talaygina. O‘zbek va ingliz tillarida modal so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonida duch kelish mumkin bo‘lgan masalalar ularning tarjimai bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Biz asosan hozirgi o‘zbek tilidagi modal so‘zlar haqida fikrlarga egamiz, bu so‘zlar deyarli barcha so‘z turkumlari doirasida uchrashi mumkin. Biroq ingliz tilida bizga ma’lum bo‘lgani modal fe’llardir. Modal fe’llar fe’l turkumi doirasiga kiruvchi so‘zlar hisoblanadi va ularga xos xususiyatlarning deyarli barchasiga egadir. Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri modal so‘zlarning muqobillarining ma’no

farqlash va farqlamaslik jihatlarini modal fe'llarning o'ziga nisbatan taqqoslashdir. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi modal so'zlarning qo'llanilish asoslarini qiyosiy aspektida tahlil qilishdir.

METODLAR.

Modallik jahon, shuningdek, ingliz va o'zbek tilshunosligida tadqiqotchilar e'tiborini tortib keladigan mavzulardan biridir. Jumladan, M.R.Qosimova tomonidan "Ingliz tili grammatikasi" kitobida modallik haqidagi umumiy qarashlarni berilgan, grammatik qoidalar va misollar orqali dastlabki o'rganuvchilar uchun yetarlicha tushunchalar taqdim etilgan. O'.Usmonov va S.Ashurov muallifligidagi "Ingliz tili nazariy grammatikasi" ilmiy risolasida modallikning muqobillariga alohida to'xtalib o'tilgan hamda ularning har biri modal so'zlarga nisbatan qiyosiy o'rganilgan. (Usmonov O'.U., 2007, 99.) Modallikni o'rganish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar ham turli xil izlanuvchilar maqolalaridan o'rganildi. Modal fe'llarning boshqa fe'llar, ya'ni mustaqil fe'llar va yordamchi fe'llardan qaysi jihatlari bilan farqlanishi haqidagi fikrlar joy olgan. D.Ganiyevaning bir necha maqolalarida dunyo tillari, xususan, o'zbek va ingliz tillaridagi fe'llarning sinkretik hamda polifunksional xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida modal fe'llar masalasi, ularning qo'llanishiga doir nazariy qarashlar badiiy adabiyotlardagi misollar yordamida ko'rib chiqilgan. (Hoshimov U., Buranov J., 1987, 47.) Shuningdek, maqolani yozish jarayonida bir qator til o'qitish masalalariga bag'ishlangan maqolalaridagi modal fe'llarni o'rgatishga doir tavsiyalardan foydalanildi.

NATIJALAR

Ingliz tilidagi modal fe'llar ko'pincha modallikni ifodalashda ishlatilgan yordamchi fe'llarning kichik bir guruhi hisoblanadi. Ular boshqa fe'llardan o'zlarining benuqsonligi bilan ajralib turadi va modal fe'llar oxirida III-shaxs birlikda -(e)s qo'shimchasini olmaydi. Asosiy ingliz modal fe'llari can, could, may, might, will, would, shall va shouldlardir. Ma'lumki, ba'zan quyidagi boshqa fe'llar modallar kabi turkumlanadi. Ular quyidagilar: ought to, had better, used to, have to,

dare va need. Ushbu fe'llar asosiy modal fe'llarining barcha xususiyatini aks ettirmaydi va ba'zan "semi modals" deb ataladi. (Newmark, P., 1988, 160.) Lekin ba'zi bir holatlarda asosiy modal fe'llarning muqobil vazifadoshi bo'lib kela oladi. Quyida mazhur yarim-modal fe'llar"ning qo'llanilish qoidalari tahlil qilamiz.

Ought to + V hozirgi va kelasi zamonda ishlatilib, axloqiy burch yoki maslahatni ifodalaydi.

He ought to help his friend. Ought to + have + P.P. shakli esa o'tgan zamonga taalluqli bo'lib, biror kishi burchini bajarmaganda yoki nomunosib xatti-harakat qilganda unga nisbatan tanbeh va ta'na ma'nosida qo'llanadi. Xuddi modal fe'llardek ularning muqobillari yordamida gaplarning so'roq shakllarini yasashimiz ham mumkin. Ought modal fe'lining so'roq shakli ought modal fe'lini egadan oldinga chiqarish orqali yasaladi. Ought to modal fe'l gapning bo'lishsiz shakli esa doimgidek "not" inkor yuklamasi yordamida yasaladi. Bizga ma'lumki, modal fe'llardan so'ng asosiy fe'lining birinchi shakli talab etiladi. Lekin semi-modallardan so'ng to talab etiladigan holatlar ham mavjud. Ought to modal fe'li har doim o'zidan keyin to ni talab qiladi. You ought to have done it yesterday. Ought I to go? I ought not to go. Need modal fe'li hozirgi ingliz tilida ham modal fe'li vazifasida, ham modal bo'lmagan to'g'ri fe'l vazifasida ishlatilishi mumkin. Ushbu modal fe'l "kerak, zarur" kabi ma'nolarni anglatadi. U asosan so'roq va inkor gaplarda ishlatiladi. Need + V biror ish – harakatning bajarilishi zarurligini bildiradi va "kerak" deb tarjima qilinadi. Bu modal fe'l faqat oddiy hozirgi zamonning so'roq va bo'lishsiz shakllarida ishlatiladi. Shu o'rinda shuni eslatib o'tishimiz kerakki, need bilan boshlangan so'roq gaplarning bo'lishli javobida must bilan javob beriladi. Need he come here? You needn't come so early. Need I go there at once? (Nida E.A., 2011, 37.)

- Yes, You must. Aksincha, must bilan boshlangan so'roq gaplarning bo'lishsiz javobida needn't bilan javab beriladi. – Must I go there at once? – No, you needn't. Need not + have + P.P. o'tgan zamonda sodir bo'lgan, lekin shu ish-harakatni bajarish zarurati bo'lmaganda ishlatiladi. (G'apparov M, 2008, 102.) You

needn't have come so early. Need fe'li asosiy fe'l bo'lib kelishi ham mumkin va u "kerak" deb tarjima qilinib, boshqa asosiy fe'llar kabi hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarda tuslanadi: You need a long rest. We needed the dictionary badly. I'll need your advice. Need fe'li asosiy fe'l bo'lib kelib, jonli (odamlarni bildiruvchi) egadan keyin tursa, undan so'ng toli infinitiv ishlatiladi. Jonli ega + need + to + V My friend needs to learn English. Need asosiy fe'l sifatida jonli egadan keyin kelsa, u holda undan keyin yoki gerundiy, yoki majhul nisbatdagi infinitiv ishlatiladi. Jonsiz ega + need + Ving Need modal fe'li ot vazifasida ham kelishi mumkin. But one has no need of a reason for that. There was no need for words. Dare fe'li ham modal fe'llar guruhiga kirib, o'zbek tilidagi "jur'at qilmoq, botinmoq" kabi fe'llarga to'g'ri keladi. Dare fe'li ishlatilishiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Modal fe'llar kabi hozirgi zamonda barcha shaxslarda o'zgarmay dare bo'lib, o'tgan zamonda esa dared (yoki durst) bo'lib o'zgaradi. Bo'lishsiz shakli esa daren't hisoblanadi. U to'g'ri fe'llar kabi tuslanadi. To'g'ri fe'llar kabi tuslanganda III-shaxsda -s ni oladi va hozirgi hamda o'tgan zamon so'roq va bo'lishsiz shakllarda do ko'makchi fe'li ishlatilishi mumkin. (Buranov J.B., 1973, 75.) Dare fe'li ko'pincha so'roq va bo'lishsiz gaplarda o'zgarmaydi. We dare not touch what you propose with a barge pole. I dare say birikmasi hozirgi ingliz tilida "mening fikrimcha, nazarimda, menimcha, bemalol aytishim mumkin" degan ma'nolarda qo'llaniladi. But I dare say I shan't miss it. Dare ning o'tgan zamon shakli durst hozirgi eskirgan shakl hisoblanadi. If I durst, said the captain, I'd stop and pock off another man. Dare va need ikkalasi ham modal fe'llar sifatida, ham oddiy fe'llar sifatida ham ishlatilishi mumkin. Dareto siz infinitive bilan ishlatilishi ham mumkin. I dare to answer her, He needs to clean that. He didn't dare go. Ular to siz infinitivni boshqarganda, modallardek qo'llaniladi va bo'lishsiz hamda so'roq gaplarda odatda chegaralangan bo'ladi. Dare he do it? (Does he dare to do it?) I daren't try. (I don't dare to try.) How dare you! How dare he! (g'azabni, kamsitishni ifodalovchi iborali birikma). I dare say. (biror narsa haqiqat ekanligiga qat'iy ishionch). To have to modal fe'l sifatida must modal fe'lining ekvivalenti hisoblanadi. To have to fe'li infinitiv bilan

ishlatilganligi uchun “majbur bo‘lmoq, bajarishga majbur bo‘lib qolmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. To have to asosan ma’lum bir sharoitga, hodisaga bog‘liqlikni anglatish uchun qo‘llaniladi. He had to see her tonight. – Why did old Tante have to live on the other side of the farm? – I just have to go to Smith’s. To have to fe’li har uchala zamonda ishlatilishi mumkin. a) hozirgi zamonda: But I have to think of you. b) o‘tgan zamonda: She had to bend and strain at it in order to pull it out. c) kelasi zamonda: I think I shall have to go.

Used to fe’lli birikma o‘tgan holatlar yoki o‘tgan odatiy harakatlarni, odatda ular uncha uzoq bo‘lmagan tub ma’noni ifodalaydi. U infinitiv bilan birga keladi (fe’lning to‘liq birikmasi: used + to + infinitive). I used to go to the college. Buning ma’nosi so‘zlovchi oldin odatiy kollejga borganligi, sababsiz ortiq davom etmaganligini anglatadi. Used he to come here? Demak, so‘roq gaplarda used gap boshiga chiqadi. Bo‘lishsiz shakli esa not inkor yuklamasi orqali yasaladi. Not inkor yuklamasi used dan so‘ng ishlatiladi. He used not to come here. Ba’zan used o‘rnida odatiy fe’lning o‘tgan zamon shakli did dan foydalanadi. Did he used to come here? He didn’t use to come here. Used to ning fe’l shakli use o‘xshash birikma, ma’noni sifat shakli bilan almashtirib bo‘lmaydi. I am used to this, we must get used to the cold. Sifat shakli fe’l orqali ifodalangan paytda gerundiylash ishlatiladi: I am used to going to college in the morning. Modal fe’llar ish-harakatning bajarilish imkoniyati, qobiliyati, ehtimolligi, zaruriyatini ifodalaydi. Ko‘plab modallar birdan ortiq ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek yuqorida berilgan “semi-modals” orqali ham so‘zlovchi ish-harakatga bo‘lgan munosabatni ifodalash imkoniga ega. Bunda berilgan ma’lumotlar yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi so‘z muqobillarini leksik muvofiqlashtirish – bu tilshunoslikdagi muhim tadqiqot sohalaridan biridir. Bu jarayon til tizimlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘g‘ri tarjima qilish imkoniyatlarini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Leksik muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi – ikki til o‘rtasida semantik va leksik jihatdan eng to‘g‘ri va mos keluvchi muqobillarni aniqlashdir. (G‘apparov M, 2008, 52.)

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida leksik muvofiqlashtirishda bir nechta muhim jihatlar e‘tiborga olinadi:

Semantik farqlar: Ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘zlarning semantik doirasi va ularga bog‘liq bo‘lgan kontekstual ma‘nolarni aniqlash muhimdir. Masalan, ba‘zi inglizcha so‘zlar o‘zbek tilida bir nechta turli ma‘nolarda ishlatilishi mumkin, yoki aksincha, o‘zbekcha so‘zlarning ingliz tilida bir nechta ekvivalentlari bo‘lishi mumkin.

Grammatik farqlar: Tilning grammatik tuzilishi, xususan, so‘zning shakli, qo‘llanilish doirasi va sintaktik tuzilmalari ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan ba‘zi grammatik shakllar (masalan, zamon tizimi) o‘zbek tilida to‘g‘ri tarjima qilinishi uchun qo‘shimcha izohlar talab qilishi mumkin.

Madaniyat va til tizimidagi o‘ziga xosliklar: Har bir til o‘zining madaniy kontekstiga, tarixiy rivojlanishiga va xalqning dunyoqarashiga bog‘liq bo‘lib, ba‘zi so‘zlar yoki iboralar faqat ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lishi mumkin. Bu turli til tizimlaridagi so‘zlar o‘rtasidagi to‘g‘ri muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi.

Leksik bo‘shliqlar: Ba‘zi holatlarda, o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan yoki maxsus muhitda ishlatiladigan so‘zlar ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda, tarjimon yoki tilshunoslar leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun mos sinonimlar yoki tushuntirishlar kiritishlari zarur.

Frazologik birliklar: Frazologik birikmalar va idiomatik ifodalar ikki til o‘rtasida tarjima qilishda maxsus diqqatni talab qiladi. Ingliz tilidagi ba‘zi idiomalar o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilinsa ham, ularning ma‘nosi yoki ta‘siri o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, so‘z muqobillarini leksik muvofiqlashtirishda kontekstual va kulturologik jihatlar ham hisobga olinishi zarur.

Media matnlari turli tillarda va turli ommaviy axborot vositalarida (televideniye, radio, gazetalar, internet saytlar va ijtimoiy tarmoqlar) keng tarqalgan va ular nafaqat ma‘lumotlarni etkazish, balki auditoriyaning ongiga ta‘sir qilish, maqsadli xabarlarni yetkazish va shuningdek, madaniy yoki siyosiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Media matnlarining tahlili kontekstual va pragmatik

jihatlarni o‘z ichiga olgan holda amalga oshiriladi. Kontekst — bu matn yoki nutqning turli omillar bilan bog‘liq bo‘lgan muhitidir. Media matnlarining kontekstual tahlili quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: (Sobirova N., 2023, 269.)

- Ijodiy va madaniy kontekst: Media matnlar har doim ijtimoiy va madaniy sharoitda yaratiladi. Bu matnlar auditoriyaning ehtiyojlariga, qadriyatlariga, va madaniy kodlariga moslashtiriladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida ommalashgan so‘zlar, meme’lar yoki tendentsiyalar turli madaniyatlarga va submadaniyatlarga asoslangan bo‘lishi mumkin.

- Siyosiy va iqtisodiy kontekst: Ommaviy axborot vositalari siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, siyosiy matnlar, biror siyosiy voqeaga yoki hukumat siyosatiga javob sifatida yaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu kabi matnlarning konteksti ularning maqsadli auditoriyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini belgilaydi.

- Vaqt va joy konteksti: Media matnlari yaratilgan vaqti va joyi ham muhimdir. Yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan postlar yoki reklamalar, ular o‘z vaqtida va muayyan joyda qanday talqin qilinishini tushunish uchun tahlil qilinishi kerak. Masalan, bir voqea haqida yangiliklar turli vaqt va mintaqalarda turlicha yoritilishi mumkin.

Pragmatika, asosan, nutqning amaliy funksiyalarini, ya’ni nutq orqali maqsadga erishishni o‘rganadi. Media matnlarining pragmatik tahlili quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

-Maqsad va niyat: Media matnining pragmatik tahlilida, uning asosiy maqsadi (informatsiya berish, ta’sir qilish, reklama qilish va hokazo) aniqlanadi. Har bir matn, ayniqsa, reklamalar yoki siyosiy nutqlar, muayyan auditoriyaga qanday ta’sir qilishni maqsad qiladi. Masalan, reklamada iste’molchini ma’lum bir mahsulotni sotib olishga undash maqsadi ko‘zda tutiladi.

-Ommaviy ta’sir: Media matnlarining pragmatik funksiyasi, ularning auditoriya bilan o‘zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi. Masalan, televizion reklama

yoki siyosiy chiqish auditoriyani ishonitirishga yoki ularning fikrini o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

-Subtekst va niyatli ma'no: Media matnlarining ko'pincha yaqqol ifodalangan, lekin ularning orqasida yashirin ma'nolar bo'ladi. Masalan, siyosiy nutq yoki reklama, matn orqali aniq bir ma'lumotdan ko'ra, ko'proq subliminal xabarlar va emotsional reaksiyalarni yaratish uchun tuzilgan bo'lishi mumkin.

- Ijtimoiy o'zaro aloqalar va manipulyatsiya: Media matnlarining pragmatik jihati, ko'pincha auditoriya bilan o'zaro aloqada o'zini namoyon qiladi. Buning bir misoli, mediadagi ijtimoiy tarmoqlar va bloglarda o'zgaruvchan munosabatlar, qarashlar va fikrlar bo'lishi mumkin. Media matnlarining pragmatik tahlili, ularning manipulyatsiya qilishga yoki odamlar orasida aniq ijtimoiy fikrlarni yaratishga xizmat qilishini aniqlashga imkon beradi.

Media matnlari ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni yoritishda, ma'lumotlarni aniq va samarali etkazishda muhim rol o'ynaydi. So'zlar va ularning munosabatlari, jumladan sinonimlar, antonimlar, hamda leksik xatolar, matnlarning samaradorligi va auditoriya bilan aloqasiga bevosita ta'sir qiladi. Quyida media matnlarida sinonim va antonim munosabatlari, leksik xatolar va ularning oldini olish yo'llari tahlil qilinadi.

Sinonimlar — ma'nosi o'xshash yoki yaqin bo'lgan so'zlardir. Antonimlar esa qarama-qarshi yoki ziddiyatli ma'noga ega so'zlardir. Media matnlarida sinonim va antonim munosabatlari turli maqsadlar uchun ishlatiladi.(Usmonov O.U, 2007, 60.)

a. Sinonimlar: - Ma'lumotni boyitish: Sinonimlar matnning xilma-xilligini va boyligini oshiradi, bir xil ma'no turlicha so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan, "kuchli" so'zi o'rnida "mukammal", "qudratli" kabi sinonimlar ishlatilishi mumkin. Bu, matnning takrorlanishidan qochishga yordam beradi va auditoriyani qiziqtiradi. - Emotsional ta'sir: Sinonimlar, ayniqsa, reklama va siyosiy matnlarda emotsional ta'sir yaratish uchun ishlatiladi. Masalan, "yaxshi" so'zining o'rniga "ajoyib",

“hayratlanarli”, “mukammal” kabi soʻzlar ishlatilsa, auditoriyada yanada kuchliroq hissiy reaksiya uygʻotadi.

b. Antonimlar: - Qarama-qarshilik yaratish: Antonimlar qarama-qarshi fikrlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Bu, matnning tasavvurini kuchaytirish va diqqatni jalb qilishga yordam beradi. Masalan, “yaxshi” va “yomon”, “muvaffaqiyat” va “muvaffaqiyatsizlik” kabi antonimlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik matnni kuchaytiradi va auditoriya eʼtiborini oshiradi. - Argumentatsiya: Media matnlarida antonimlar koʻpincha bahsli yoki argumentli matnlar yaratishda ishlatiladi. Masalan, siyosiy nutqlarda “erkinlik” va “bosim” yoki “sulh” va “urush” kabi antonimlar oʻrtasidagi farqlarni taʼkidlash orqali siyosiy qarashlar taqdim etilishi mumkin.

2. Leksik xatolar va ularning oldini olish yoʻllari: Leksik xatolar — soʻzning maʼnosi yoki ishlatilishi boʻyicha yuzaga keladigan notoʻgʻri ifodalar. Bu xatolar media matnlarining sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Quyidagi leksik xatolar va ularning oldini olish usullari keltirilgan:

a. Sinonimlarni notoʻgʻri ishlatish: - Xato: Sinonimlarni notoʻgʻri oʻrinda ishlatish, matnning maʼnosini buzishi mumkin. Misol uchun, “muvaffaqiyat” soʻzining oʻrniga “yutuq” soʻzini ishlatish, ammo bu soʻzlar baʼzan maʼno jihatidan bir-biridan farq qiladi.- Oldini olish yoʻllari: Sinonimlarni ishlatishdan oldin, ularning kontekstual maʼnosini chuqur tushunish zarur. Sinonimlarni faqat ular oʻzaro toʻliq mos kelgan va maʼno jihatidan bir xil boʻlsa, ishlatish kerak.

b. Toʻgʻri soʻz tanlamaslik: - Xato: Media matnlarida notoʻgʻri yoki noaniq soʻzlarni tanlash, matnni noaniq yoki tushunarsiz qilishga olib kelishi mumkin. Masalan, “kutilgan natija” oʻrniga “kutilmagan natija” kabi notoʻgʻri ifodalar ishlatilsa, bu matnning noaniqligini keltirib chiqaradi. - Oldini olish yoʻllari: Leksik tanlovni amalga oshirishda soʻzlarning aniq maʼnolarini tushunish va ulardan toʻgʻri foydalanish zarur. Soʻzning grammatik va semantik toʻgʻriligiga alohida eʼtibor qaratish kerak.

c. Tergov etish va kontekstni hisobga olish: - Xato: Matnda baʼzi soʻzlar faqat maʼlum bir kontekstda ishlatilishi mumkin, va ularni notoʻgʻri joyda ishlatish leksik

xatolarga olib keladi. Misol uchun, “birinchi navbatda” ifodasi har doim eng muhim vazifani bildiradi, lekin ba’zida boshqa holatlarda noto’g’ri ishlatilishi mumkin. - Oldini olish yo’llari: So’zlarning kontekstual ma’nolarini tahlil qilib, ular faqat o’z joyida ishlatilishi kerak. Shuningdek, yangi so’zlar yoki frazalardan foydalanishda, ularning aniq va to’g’ri ishlatilishini tekshirish kerak.

d. Kalidik (xususiy) va umumiy so’zlarning chalkashligi: - Xato: Ba’zan media matnlarida kalidik (xususiy) va umumiy so’zlar o’rtasida chalkashlik bo’lishi mumkin. Misol uchun, “shahar markazi” va “markaziy hudud” o’rtasidagi farqni bilmaslik.

- Oldini olish yo’llari: Xususiy va umumiy so’zlarni ajratish va ularni aniq kontekstda ishlatish zarur. Shuningdek, agar maxsus terminlardan foydalanilsa, ularning ma’nosini aniq belgilash kerak.

XULOSA

Ingliz va o’zbek tillari o’rtasidagi so’z muqobillarini leksik muvofiqlashtirish bir qator qiyinchiliklarni o’z ichiga olsa-da, to’g’ri yondashuvlar va texnologiyalar yordamida samarali natijalarga erishish mumkin. Ushbu mavzuda ko’proq tadqiqotlar va amaliy tajribalar o’tkazish zarur. Tadqiqot davomida ko’rib chiqilgan mavzular, ya’ni modallikni o’rganishdagi hozirgi kunga qadar davom etayotgan izlanishlardan va muammoli vaziyatlarning muhokamalaridan kelib chiqqan holda aytadigan bo’lsak, bu mavzu yechimi topilmagan masalalar, yo’nalishlar va qiyosiy tahlilga muhtojligi ko’zga tashlandi. Modallik munosabatni ifodalash uchun qo’llanilsa, ularning muqobillari ham xuddi shunday vazifani ifodalashi isbotlangan. Maqolani yozish jarayonida yarim-modallarning bir nechtasiga to’xtalib o’tildi, lekin hali o’rganilmagan modallarning muqobillari ham bor. O’rganilgan modal vazifasini bajara oluvchi so’zlar haqidagi grammatik qoidalar va ularning misollar yordamida tushuntirib berilishi o’quvchiga mavzuni tushunishga yordam beradi. Bu esa mazkur yo’nalishda monografik plandagi izlanishlar uchun yo’l ochib beradi. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o’zbek tillari o’rtasida so’z muqobillarini leksik muvofiqlashtirish, har ikki tilning struktura va semantik tizimlarini chuqur

o‘rganish, shuningdek, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni inobatga olishni talab qiladi. Ushbu jarayon til o‘rganish va tarjima sohalarida muvaffaqiyatli ishlash uchun zaruriy ko‘nikmalarni shakllantiradi va tilning boyligini to‘liq anglashga yordam beradi. Media matnlarining kontekstual va pragmatik xususiyatlari tahlili, ularning auditoriyaga qanday ta’sir qilishini, qanday niyat bilan yaratilganligini, va ular qanday tarzda ma’lum ijtimoiy yoki siyosiy maqsadlarni amalga oshirishni o‘rganishga yordam beradi. Bu turli ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillarni hisobga olishni talab qiladi va shuning uchun media tahlili doimiy ravishda rivojlanib boradi. Media matnlarida sinonim va antonim munosabatlari, shuningdek, leksik xatolarni oldini olish, matnning samaradorligini va aniq ifodalanganligini ta’minlash uchun muhimdir. Sinonim va antonimlarning to‘g‘ri ishlatilishi auditoriya e’tiborini jalb qilishda va matnning ma’nosini to‘liq etkazishda yordam beradi. Leksik xatolarni oldini olish uchun esa so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, kontekstni hisobga olish va til qoidalariga rioya qilish zarur. Bu orqali media matnlarining sifati oshadi va auditoriya bilan muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baker, M. “In Other Words: A Coursebook on Translation.” Routledge. – 2011.
2. Buranov J.B, “Ingliz tili grammatikasi” T.: „O‘qituvchi”. – 1973.
3. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press. 1965.
4. Hoshimov U, Buranov J, “Ingliz tili grammatikasining normativ kursi”. – T.: O‘qituvchi. – 1987.
5. Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall. – 1988.
6. Nida, E. A. Language and Culture: Contexts in Translation. – SIL International. – 2011.
7. Sobirova N. “Mediamatnlarda sarlavhalar tarjimasining pragmatik funksiyasi”. *Ilm sarchashmalari* – Nukus, 2024. – № 6. – 141b.

8. Sobirova N. Zamonaviy tarjimaning publitsistikadagi o‘rni: chet el yangiliklari ruknida. O‘zMU Xabarlari – Toshkent, 2023. – № 1. – 269b.
9. Usmonov O‘.U., Ashurov Sh.S. “Ingliz tili nazariy grammatikasi”. Sam.: – 2007.
10. G‘apparov M, Qosimova R, “Ingliz tili grammatikasi”. T.: – 2008.

REFERENCES

1. Baker, M. (2011). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
2. Buranov, J. B. (1973). English grammar. Uqituvchi. Tashkent.
3. Catford, J. C. (1965). A linguistic theory of translation. Oxford University Press.
4. Hoshimov, U., & Buranov, J. (1987). The normative course of English grammar. Uqituvchi.
5. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
6. Nida, E. A. (2011). Language and culture: Contexts in translation. SIL International.
7. Sobirova, N. (2024). The pragmatic function of headlines translation in media texts. *Ilm Sarchashmalari*, (6), 141b.
8. Sobirova, N. (2023). The role of modern translation in journalism: Foreign news section. *UzMU Journal*, (1), 269b.
9. Usmonov, O. U., & Ashurov, Sh. S. (2007). Theoretical grammar of English. Sam.
10. Gapparov, M., & Qosimova, R. (2008). English grammar. Tashkent.